


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
O'ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA
SPORT UNIVERSITETI**



**«SPORTCHI TALABALARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY VA
TABIIY-ILMIY FANLAR INTEGRATSIYASI»
ILMIY-AMALIY ANJUMANI**

2024 yil 15 mart

**НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
«ИНТЕГРАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В
РАЗВИТИИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
СТУДЕНТОВ-СПОРТСМЕНОВ»**

15 марта 2024 года

Chirchiq-2024

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SPORT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT JISMONIY TARBIYA VA
SPORT UNIVERSITETI**

**«SPORTCHI TALABALARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK
KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA IJTIMOIIY VA
TABIIY-ILMIY FANLAR INTEGRATSIYASI»
ILMIY-AMALIY ANJUMANI
2024 yil 15 mart**

**НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ
«ИНТЕГРАЦИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ И ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК В
РАЗВИТИИ НАУЧНО-ИССЛЕДОВАТЕЛЬСКОЙ КОМПЕТЕНЦИИ
СТУДЕНТОВ-СПОРТСМЕНОВ»
15 марта 2024 года**

УДК: 796.011.1; 796.011.2

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Jismoniy tarbiya va sport sohasida kadrlarni tayyorlash hamda ilmiy tadqiqotlar tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-414 sonli qarori ijrosini ta’minlashga qaratilgan “Sportchi talabalarning ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar integratsiyasi” mavzusidagi iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjuman material. - Chirchiq.: 2024. – 1156.

Tashkiliy qo‘mita:

F.M.Yaqubov	Kafedra mudiri, rais
Z.X.Yusupova	Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrası dotsent v.b, p.f.b.(PhD), rais o‘rinbosari
A.Akbarov	Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrası professori, a’zo
N.Nazarov	Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrası professor, a’zo
U.X.Jumayev	Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrası dotsent., a’zo
Ya.A.Turdimuratov	Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrası dotsent v.b., a’zo
N.R.Yusupova	Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrası dotsent v.b., a’zo
B.B.O‘roqov	Sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlar kafedrası o‘qituvchisi, texnik kotib.

Iqtidorli talabalarning ilmiy-amaliy anjuman materiallari to‘plamida jismoniy tarbiya va sportda ilmiy tadqiqotni olib borish muammolari va yechimlari; jismoniy tarbiya va sportda sport huquqi, ijtimoiy va tabiiy-ilmiy fanlarni qo‘llash borasida ilmiy tadqiqotlarni olib borish zarurati; jismoniy tarbiya va sportda ilmiy tadqiqot ishlarini rejalashtirish va tashkil etishning zamonaviy innovasion yo‘nalishlari; sportchi talabalarning ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini rivojlantirishda mustaqil ijodiy faoliyatga yo‘naltirish muammolari va yechimlariga bag‘ishlangan tadqiqotlar muhokamasi o‘rin olgan.

To‘plamda nashr etilgan maqolalardagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar mas’uldirlar.

Mas’ul muharrir:
p.f.d., dotsent A.N.Shopulatov

O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti O‘quv-uslubiy Kengashining qaroriga asosan nashrga tavsiya etildi.

KIRISH



Jismoniy tarbiya va sport rivojida sportchi talabalarining o'рни alohida ahamiyatga ega. Bunda ularning jahon talablariga mos keladigan dunyoqarashi muhim o'rin tutadi. Hozirda globallashuv jarayonining tezlashishi, axborot oqimining kuchayib borishi barcha soha mutaxassislarining dunyoqarashida turli muammolarni paydo qilmoqda. Bu holat sportchi talabalarining tafakkurini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Jahon tajribasidan ma'lumki, jismoniy tarbiya va sport rivojida ushbu soha mutaxassislarining o'рни alohida ahamiyatga ega. Bunda ularning taktik tayyorgarlik darajasi, taktik mahoratining rivojlanganligi, analitik fikrlash qobiliyati muhim o'rin tutadi. Hozirda globallashuv jarayonining tezlashishi, axborot oqimining kuchayib borishi barcha soha mutaxassislarining kasbiy kompetentligini rivojlantirib borish bilan bog'liq amaliy tadqiqotlarni talab qilmoqda. Bu holat sportchi talabalarining ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini zamonaviy yondashuvlar asosida rivojlantirish mexanizmlarini ishlab chiqish zaruriyatini taqozo etmoqda.

Bugungi kunda dunyo olimlari tomonidan sportchi talabalarining kasbiy bilimlari, amaliy ko'nikmalari, sohaviy malakalarini oshirishning ilmiy-uslubiy hamda tashkiliy asoslarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borilmoqda. Ushbu tadqiqotlarning muhim jihati shundaki, sport mutaxassislarini tayyorlash hamda aholi orasida ommaviy sportni rivojlantirishda turli sohalar hamkorligiga e'tibor qaratilmoqda. Natijada, bir tomondan iqtisodiy yuksalish ortmoqda, ikkinchi tarfdan jismoniy tarbiya va sport mutaxassislari dunyoqarashida moddiy manfaatdorlikning asosiy motivga aylanishi, jismoniy kuchni dominant sifatida bilish kabi muammolar yuzaga kelmoqda. Bu esa sportchi talabalarining ilmiy tadqiqotchilik kompetentligini kompleks rivojlantirish bilan bog'liq tadqiqotlarni tashkil qilishni talab qiladi.

Jamiyatimizda sog'lom turmush tarzini shakllantirish, aholining, ayniqsa yosh avlodning jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan muntazam shug'ullanishi uchun zamon talablariga mos shart-sharoitlar yaratish, sport musobaqalari orqali yoshlarda o'z irodasi, kuchi va imkoniyatlariga bo'lgan ishonchni mustahkamlash, mardlik va vatanparvarlik, ona Vatanga sadoqat tuyg'ularini kamol toptirish, shuningdek, yoshlar orasidan iqtidorli sportchilarni saralab olish ishlarini tizimli tashkillashtirish hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan keng ko'lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur harakatlarda barkamol avlodni tarbiyalash asosiy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shuningdek, jismoniy tarbiya va sportning ijtimoiy institut sifatida rivojlanib borishi, uning imkoniyatlaridan samarali foydalanish bo'yicha ishlarni tashkil qilish zarur ekanligini ko'rsatadi.

Ayniqsa, jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarida qadriyatlarni shakllantirish bo'yicha bilim va tajribalarni rivojlantirish Vataniga sodiq bo'lgan farzandlarni tarbiyalashda o'z samarasini beradi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 3 iyundagi "Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3031-son Qarori, 2018 yil 5 martdagi "Jismoniy tarbiya va sport sohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan



7. (Y-Yo'p) qiymatlarini kvadratga olishda ham shu punktlar amalga oshiriladi. Yig'indi hisoblanadi.

8. Ishni bajarganingizdan keyin quyidagi jadval hosil bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 99-105.
- 2.Kazakov R. T., Rasulov Q. Q. TRAINING IN INTERNATIONAL WRESTLING TECHNIQUES AND TACTICS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 180-186.
- 3.Yusupova N. R. SOCIO-GENDER ASPECTS OF MODERN WOMEN'S SPORTS //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 118-124.
- 4.Kazakov R. T. THE MAIN PHYSICAL QUALITIES OF ATHLETES //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 6. – C. 719-725.
5. Kazakov R. THE METHOD OF IMPROVING PHYSICAL AND SPECIAL PHYSICAL FITNESS INDICATORS OF SHORT-DISTANCE RUNNERS //Журнал иностранных языков и лингвистики. – 2023. – Т. 6. – №. 2.
- 6.Казоқов Р.Т., Абдиев Б.С., Джўрабаев А.М., Бўриев Б.Ў. Спортчилар тайёрлаш тизимини бошқарув асослари турлари. // "OMMAVIY SPORT TADBIRLARINI TASHKIL ETISH: MUAMMOLAR, TENDENSIYALAR VA ISTIQBOLLAR" ЎзДЖТСУ, 1, 530-538

JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA KOMPYUTER GRAFIKASI

J.R. Qaxramonov
YA 53-21 guruh talabasi.
Ilmiy rahbar: Kazoqov R.T

Piksel – bu rastrli tasvirning eng kichik elementi bo'lib, uning rangi Kompyuter xotirasiga bitlarning ma'lum bir miqdori vositasida kiritiladi. Masalan 800x600 suratda bu sonlar gorizontaal bo'yicha (800) va vertikal bo'yicha (600) piksellar sonini belgilaydi. Piksellar soni qanchalik ko'p bo'lsa tasvirning ekrandagi va qog'ozda chop etilgandagi sifati (razreshenie) yuqori bo'ladi.

Vektorli grafikada tasvirlar matematik egri chiziqlarni rangi va bo'yalish rangini ko'rsatish orqali xosil qilinadi. Maslan oq fondagi qizil ellips bor yo'g'i ikki formula – to'g'ri to'rtburchak va ellipsning ranglari, o'lchamlari va joylashuvini aniqlovchi formulalari orqali tasvirlanadi. Demak, bunday tasvirlash Kompyuter xotirasida rastarli rasmdan ko'ra kamroq joy egallaydi.


Vektorli tasvirlarning yana bir afzalligi – ularning sifatini yo'qotmagan xolda kattalashtirish yoki kichiklashtirish imkoniyatidir. Ob'ektlarni masshtablash matematik formulalardagi mos koeffitsientlarni kattalashtirish yoki kichiklashtirish orqali amalga oshiriladi.

SHunday qilib rastarli yoki vektorli formatni tanlash tasvir bilan ishlash maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan xolda amalga oshiriladi. Rangni uzatishning fotografik aniqligi talab etilganida rastarli formatdan foydalanish lozim. Logotip, sxemalar va chizmalarni tasvirlashda vektorli formatdan foydalanish maqsadga muvofiq. SHuni ta'kidlash lozimki, rastarli va vektorli tasvirlashda (matn ham) grafika ekranga yoki chop etish qurilmasiga nuqtalar jamlanmasi sifatida uzatiladi.

Kompyuter grafikasi bilan ishlovchi dastur sinflari.

Xozirgi kunga kelib Kompyuter grafikasi va animatsiyasi vositalari kirib bormagan soxani topish kiyin. Kompyuter grafikasi va animatsiyasi dasturlari rassom va dizaynerlar, poligrafchi va kinematografchilar, Kompyuter uyinlari va ukitish dasturlari yaratuvchilari, klipmeyker va olimlar, shuningdek uz faoliyatida turli formatdagi tasvirlardan foydalanuvchi barcha mutaxassislarda xam katta kizikish uyg'otadi.


Rang modellari. RGB modelining nomi Red - qizil, Green – yashil va Blue – ko'k birlamchi ranglarning bosh xarflaridan olingan bo'lib, ushbu ranglarning turli proporsiyalarda aralashtirish natijasida ko'rinuvchi spektrning turli xil boshka ranglarini olish mumkin. Birlamchi ranglarning aralashmasidan ikkilamchi moviy (cyan), pushti (magenta) va sariq (yellow) ranglar xosil bo'ladi.



RGB modeli.

RGB modelining tashkil etuvchilari 0 dan 255 gacha qiymat qabul qilishlari mumkin. **R=255, G=255, B=255** bo'lganda oq rang, **R=0, G=0, B=0** bo'lganda esa qora rang xosil qilishimiz mumkin.

CMYK modeli bo'yoqlarning nurni yutish qobiliyatiga asoslangan. Oq rangning nur o'tuvchi bo'yoqdan o'tishida spektrning bir qismi yutiladi. YUtilmagan nur qaytadi va odam ko'ziga tushadi.



CMYK modeli.

Ranglarmoviy(**Cyan**), pushti (**Magenta**) va sariq (**Yellow**) ranglar aralashmasidan paydo bo'ladi. Ularning to'liq aralashmasidan qora (**black**) rang xosil bo'ladi. Modelining tashkil etuvchilari 0 dan 100 gacha qiymat qabul qilishlari mumkin.

HSB (HSV) modeli. Model nomi unga asos bo'lgan uch komponentning bosh xarflaridan olingan: Hue - rangtoni; Saturation - to'yinganlik; Brightness - yorqinlik. Model odam ko'zining rangni xis qilish qobiliyatiga asoslangan.

Rangtoni 0 dan 360 gradusgacha diapazondagi burchak kattaligi bilan tavsiflanadi.

To'yinganlik (yoki xromatiklik) rangning tozalik darajasidir. U kul rangning boshqa rangga nisbati bilan aniqlanadi (0% – kul rang, 100% – to'la to'yingan rang).

Rangning **yorqinligi** 0 dan 100 gacha o'zgarishi mumkin.

Multimedia va grafik dasturiy ta'minotlar. Qishloq xo'jaligi uchun qo'shimcha dasturiy ta'minot sifatida ko'pgina foydalanuvchilar shu soha bo'yicha maxsus ishlab chiqarilgan maxsus dasturiy ta'minotlar bilan ishlaydilar. SHu sohaga yo'naltirilgan foydalanuvchilar xuddi muhandislar, arxitektorlar, nashriyotchilar kabi foydalanuvchilar grafikadan doimo foydalanishadi. Bunday dasturiy vositalar esa ularga grafika va Multimedia bilan ishlashga xizmat qiladi. Bu dasturiy ta'minot avtomatlashtirilgan loyihalashtirish, nashriyot tizimi, bo'yoq/tasvir tahrirlagichlar, foto tahrirlagichlar, video va audio tahrirlagichlar va Multimedia yaratish hamda Veb-sahifa yaratish kabilarni o'z ichiga oladi. 4.1-jadval bir qancha ommabop dasturlar professional va texnik ziyrak foydalanuvchilar uchun kategoriyalari bilan maxsus ko'rsatmalar asosida keltirib o'tilgan. Bu dasturlar ayni paytda juda qimmat dasturiy vositalar hisoblanadi. Ko'pgina Multimedia va grafik dasturlar foydalanuvchilar tomonidan foydalanish orqali oson interfeysli va soda versiyalari bilan bu dasturda grafikli hujjatlar yaratiladi. Keyingi bo'limda Multimedia va grafik dasturiy vositalarning funktsiyalari va afzalliklari ko'rib chiqiladi.

Jahon miqyosida nazar soladigan bo'lsak Kompyuter grafikasi va elektron dizayn juda ham keng darajada rivojlangan. Ularni qishloq ho'jaligi amaliyotida allaqachondan buyon qo'llab kelishmoqda. Lekin bu yaratilayotgan barcha dasturlar, reklama roliklar, dizaynlarning asosiy qismi kinofilmlar, mul'tfilmlar, web-saytlar uchun yaratilmoqda. Maxsus agrar soha veb-saytlarida mavzulashtirilgan reklama roliklarning kamligi, borlarini ham aniq bir fanni mavzularini to'la yoritib bera olmasligi ta'lim sohasiga yanada ko'proq e'tibor berish lozimligini e'tirof etadi. Lekin qishloq xo'jaligi bo'yicha elektron darsliklarni

ichiga kiritilgan reklamali roliklardan hozirda grafikaning eng zamonaviy yo`nalishi bo`lgan roliklarning yaratilishi saytlarga va shunga tegishli bo`lgan narsalarga qiziqishni oshiradi. To`g`ri bu sohada ko`p ishlar amalga oshirilgan. Darsliklarning Multimedia shaklida o`tilishi o`qituvchilarga bir qancha qulayliklar tug`diradi. Chunki, shu fanga mavzulashtirilgan ovozi dasturlar, rasmi ishlanmalar, harakatli yozuvlar (prizentatsiyalar), multiplikatsiya ko`rinishida yaratilgan filmlar, animatsiyalar va reklama roliklar bir tomondan o`qituvchi uchun engillik bo`lsa, ikkinchi tomondan tinglovchilar uchun qiziqarli va diqqatini o`ziga jalb qiladi. Va mavzuni yaxshi o`zlashtirilishiga turtki bo`ladi. Ta`lim sohasining multimedia ko`rinishida o`tkazilishiga sabab ham shu. Chunki, foydalanuvchitelevizorda qo`yilayotgan multfilm va reklama roliklarini ko`rish o`rniga darsga boradi, bu esa o`z-o`zidan o`quv muassasalariga yanada qiziqishni oshiradi. Animatsiyali rolik mavzuni har jihatdan o`rganib, keng qamrab olishiga qaramasdan uni ham kamchiliklari bor. Xususiyl holda olib qaraydigan bo`lsak, fizika va kimyo fanlari mavzulari uchun ishlangan roliklar har bir fizik, ximik jarayonni ko`z ilg`amas tomonlarigacha ko`rsatib bera oladi, tushuntirib bera oladi, bunga sabab tinglovchilarning ba`zi psixologik hususiyatlari e`tiborga olingan. Masalan: Harakatga e`tibor - Bu harakatlanmagan ob`ektga nisbatan harakatlangan ob`ektning tezroq esda qolishi. Bitta tasvirda 7 tadan 9 tagacha ob`ektlarni eslab qolishi. Va bu tasvirda ob`ektlarni xossalari va ob`ektlar aro axborotni to`liq qamrab olishi, qolaversa bu axborotni to`laligicha o`zgarimas holida saqlab qolishidir.

Kompyuter grafikasi uzoq yillar davomida vujudga kelib, 1960 yillarda ham to`laqonli grafik tizimlar mavjud bo`lgan. Hozirgi kunda Kompyuter grafikasi (KG) va Kompyuter animatsiyasi (KA) atamalaridan foydalaniladi. **Kompyuter grafikasi** tushunchasi statik tasvirlar bilan ishlashning barcha ko`rinishlari o`z ichiga olsa **Kompyuter animatsiyasi** dinamik o`zgaruvchi tasvirlar Bilan ishlaydi.

Kompyuter grafikasi – Kompyuter boshqaruvida grafik ob`ektlarni kiritish, chiqarish, tasvirlash, o`zgartirish va tahrirlashdir.

Kompyuter animatsiyasi – ekranda tasvirlarni “jonlantirish”, Kompyuterda dinamik tasvirlar sintezidir.

Kompyuter grafikasi – informatikaning mahsus qismi bo`lib, dasturiy-apparat hisoblash komplekslari yordamida tasvirlarni yaratish va qayta ishlash usullari va vositalarini o`rganadi. Virtual fazoda xajmli ob`ektlarni yaratish usullarini o`rganuvchi soha **uch o`lchovli (3D) grafika** deb nomlanadi. Odatda unda tasvir yaratishning vektorli va rastri usullaridan foydalaniladi.

Innovatsion Kompyuter. Mushakbozlik dasturiy vositasi yordamida real «portlash» yaratish mumkin. Ushbu maxsus dasturiy vosita yordamida hattoki mushakbozlikni pirotexnik va musiqali javobini eshitish mumkin. Asosiy mushakbozlik xiyobonda o`tkazilgan mustaqillik kuni uchun ishlab chiqilgan. Unda har bir mushak musiqa kuchi bilan aniqlangan. 20 minutlik shouni rejalashtirilish uchun 4 oyga yaqin vaqt ketgan. Operator dasturni ishga tushirganda har bir grafik bo`shliqqa bog`lanishda Kompyuterni ishchi moduldan ozod etish uchun signal yuboradi.

Loyihalashtirishni avtomatlashtirish. Loyihalashtirishni avtomatlashtirish (CAD) dasturiy vositalari amaliy dasturiy vositalarning qiyin turlaridan hisoblanib, ular professional foydalanuvchilar ilmiy loyihalarni, arxitektura ishlanmalarini yaratish uchun yordam beradi. Masalan, muhandislar transport vositalari uchun dizayn va xavfsizlik ta'minotini yaratishadi. Arxitektorlar binolarni loyiha strukturasini va bino rejasini tuzishadi.



1-rasm. Arxitektorlar CAD dasturlaridan binoni strukturasini loyihalashda foydalanadi.

Sport inshootlarining loyihasini avtomatlashtirilgan tizimda tizim dizaynini loyihalash usullarini ishlab chiqadilar (1- rasm). CAD dasturiy vositalari loyiha dizaynini va loyiha ustida ish olib borish jarayonini engillashtiradi. Uch fazoli CAD dasturlari loyihachiga ob'ektlarni har qanday burchak ostida aylantirib, ko'rib ishlash imkonini beradi. Nashriyot tizimidagi grafik dasturiy vositalar (professional uchun). Nashriyot tizimidagi dasturiy vositalar (DTP. Desktop publishing software) professional loyihachilar uchun qiyin matnli, grafikali va ko'p ranglardan tashkil topgan hujjatlarni yaratishga xizmat qiladi 1-rasm. Ushbu dasturiy vositalar yordamida darsliklar uchun yuqori sifatli rangli hujjatlar, korporativ axborot byulletenlari, mahsulotlar kataloglari hamda yillik hisobotlar tayyorlashlari mumkin.



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Kazakov R. T. et al. MULTIMEDIA SYSTEMS AND DISTANCE LEARNING TECHNIQUES IN SPORTS SOX //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 9. – C. 99-105.

<i>To'ychiyev A., Abdikadirova N.S.</i> YOSHLARDA AXBOROTGA TOBELIK OMILLARINING SOSIOLOGIK XUSUSIYATLARI	41
<i>Soliyeva M. G., Djo'rabayev A.M.</i> TALABALARNING JISMONIY TARBIYA VA SPORT FAOLIYATLARINI O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	47
<i>Yusupov S.M., Djo'rabayev A.M.</i> JISMONIY TARBIYA SHAKLLARI VA METODLARI	49
<i>Saparova B., Jabborova S.</i> QILICHBOZLIK MUSOBOQA FAOLIYATI NATIJALARI DINAMIKASINI VA SPORT MAHORATINING O'SISHINI O'RGANISH	51
III SHO'BA. JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA ILMIY TADQIQOT ISHLARINI REJALASHTIRISH VA TASHKIL ETISHNING ZAMONAVIY INNOVASION YO'NALISHLARI Moderatorlar: Yusupova Z., Abdigodirova N.	
<i>Abdireimova G.I., Jumayev M.X.</i> YOSH GIMNASTIKACHILAR MASHG'ULOT JARAYONIDA YUKLAMALARINI QO'LLANILISHI	53
<i>Qaxramonov R., Kazoqov R.T.</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORTDA KOMPYUTER GRAFIKASI	59
<i>Sottivoyeva X.I., Kazoqov R.T.</i> JISMONIY TARBIYA VA SPORTGA ELEKTRON SPORT RESURSLARINI YARATISH ASOSLARI.	63
<i>E.Xakimov., Mirdjamalova N.Z..</i> MALAKALI KURASHCHI QIZLARLARNING JISMONIY VA TEXNIKTAKTIK TAYYORGARLIK VOSITALARI NISBATINI OPTIMALLASHTIRISH	67
<i>Yo'ldosheva S., Jumayev M.X.</i> 1918-1941 YILLARDA O'ZBEKISTONDA SUZISHNING RIVOJLANISHI	71
<i>Buriyev B.U.</i> MUSTAQIL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SUZISH	84
IV SHO'BA. SPORTCHI TALABALARNING ILMIY TADQIQOTCHILIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MUSTAQIL IJODIY FAOLIYATGA YO'NALTIRISH MUAMMOLARI VA YECHIMLARI Moderatorlar: To'rayeva N., Olxovskaya I.,	
<i>Buriyev B.U.</i> SPORTGA SUZISH USULARINING RIVOJLANISHI	88
<i>Buriyev B.U.</i> YOSH VOLEYBOLCHILAR TEXNIK VA TAKTIK MAHORATLARINI TAKOMILLASHTIRISH VA JISMONIY TAYYORGALIKLARIN AMALGA OSHIRISH USLUB VA TAMOYILLARI.	93
<i>Чикалова А.Н., Мирджамалова Н.З.</i> ИСТОРИЧЕСКИЕ РАЗВИТИЯ И ПЕРСПЕКТИВА ЖЕНСКОГО СПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ	94
<i>Шайсинов К., Азамова М.Г.</i> ИСТОРИЧЕСКИЙ ПУТЬ РАЗВИТИЯ СПОРТА В УЗБЕКИСТАНЕ	98
<i>Витчинкин В., Ольховская И.В.</i> СУЩНОСТЬ ФИДЖИТАЛ СПОРТА	100
<i>Mirzaobidova K.M., Turaeva N.M..</i> THE ROLE OF NATURAL SCIENCES IN THE FIELD OF MANAGEMENT	102
<i>Buriyev B.U.</i> YOSH VOLEYBOLCHILAR TRENIROVKA	103